

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “UNUTMA
BIR MARTA CHALINAR NAVO” SHE’RINING TAHLILI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynbergning serqirra, keng janrli ijodiy faoliyat yo‘li bilan nafaqat o‘zbek adabiyotining XX asr oxiri XXI asr boshidagi rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi, balki mana shu yangi davr milliy adabiyotida o‘ziga xos hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. U milliy ruh va insoniy oliy fazilatlarni uyg‘unlashtira olgan, so‘zning musiqiylikini va ma‘no qatlamlarini teran his etgan shoirlardan biri hisoblanadi. Faynberg adabiyotning ixlosmandlari yaxshi bilishadiki, uning she‘riyatida Vatan, inson qadr-qimmat, xotira va muhabbat mavzulari markaziy mavzulardandir. Ayniqsa, muhabbat haqidagi she‘rlarida u romantik hissiyotlardan ko‘ra, ma‘naviy hushyorlik, qalb pokligi va ruhiy mas‘uliyat mavzularini ilgari suradi. Aleksandr Faynberg oddiy so‘zlar bilan shunchalar ta‘sirli, inson qalbiga, ruhiyatiga yaqin san‘at asarlarini yaratadiki, bu asarlar o‘zida insonni ma‘naviy tarbiyalaydigan, uni bexos hayot haqida o‘yga toldiradigan chuqur falsafiy mushohada, hayotiy misollarni jamlaydi. Lirik qahramon hayotining talqin qilinish uslubi kitobxonlarga vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilish, biror amalni bajarganda uning natijasi nima oqibatlariga olib kelishi haqida hayotiy darsni beradi. Ushbu maqolada tahlili qilmoqchi bo‘lganimiz “Unutma. Bir marta chalinar navo” she‘rida ham yuqoridagi keltirgan ba‘zi fikrlarimiz o‘z tasdiqini topadi. Bu she‘rda muhabbat shunchaki tuyg‘u emas, balki inson hayotidagi yagona va takrorlanmas hodisa sifatida talqin etiladi. Unda iztirob, o‘ziga xos ogohlantirish, sukunat, sabr va ilohiy uyg‘unlik g‘oyalari so‘z musiqiylik xususiyatlaridan foydalanilgan holda ochib beriladi.

Abstract: Through his diverse and wide-ranging creative activity, Alexander Arkadyevich Feinberg not only made an incomparable contribution to the development of Uzbek literature at the end of the 20th and the beginning of the 21st centuries, but also emerged as a unique phenomenon in the national literature of this new era. He is considered one of the poets who was able to combine the national spirit and the highest human qualities, and who deeply felt the musicality of the word and the layers of meaning. Lovers of Feinberg's literature know well that the themes of the Motherland, human dignity, memory and love are among the central themes in his poetry. In particular, in his poems about love, he puts forward the themes of spiritual vigilance, purity of heart and spiritual responsibility rather than romantic feelings. Alexander Feinberg creates such touching works of art with simple words, close to the human

heart and soul, that these works are in themselves a means of spiritual education of a person, of involuntarily It is a profound philosophical observation about life that makes you think, and it collects real-life examples. The way the lyrical hero's life is interpreted gives readers a life lesson about making the right decision at the right time and the consequences of doing something. In the poem "Don't forget. Once the flute will play", which we are going to analyze in this article, some of the ideas we mentioned above are also confirmed. In this poem, love is interpreted as not just a feeling, but as a unique and unrepeatable event in human life. In it, the ideas of suffering, a special warning, silence, patience, and divine harmony are revealed using the musical properties of words.

Аннотация: Своей многогранной и всесторонней творческой деятельностью Александр Аркадьевич Файнберг не только внес несравненный вклад в развитие узбекской литературы конца XX и начала XXI веков, но и стал уникальным явлением в национальной литературе новой эпохи. Он считается одним из поэтов, сумевших объединить национальный дух и высшие человеческие качества, глубоко почувствовавших музыкальность слова и многослойность смысла. Любители литературы Файнберга хорошо знают, что среди центральных тем его поэзии — темы Родины, человеческого достоинства, памяти и любви. В частности, в своих стихах о любви он выдвигает на первый план темы духовного бдительности, чистоты сердца и духовной ответственности, а не романтических чувств. Александр Файнберг создает настолько трогательные произведения искусства простыми словами, близкими человеческому сердцу и душе, что эти произведения сами по себе являются средством духовного воспитания человека, невольным глубоким философским размышлением о жизни, заставляющим задуматься, и собирающим примеры из реальной жизни. Интерпретация жизни лирического героя преподносит читателям жизненный урок о принятии правильных решений в нужное время и о последствиях таких действий. В стихотворении «Не забывай. Когда-нибудь зазвучит флейта», которое мы будем анализировать в этой статье, подтверждаются и некоторые из упомянутых выше идей. В этом стихотворении любовь интерпретируется не просто как чувство, а как уникальное и неповторимое событие в человеческой жизни. В нем идеи страдания, особого предостережения, молчания, терпения и божественной гармонии раскрываются с помощью музыкальных свойств слов.

Kalit so'zlar: muhabbat,falsafa,ilohiy navo,yurak torlari,qalb pokligi,soxta tuyg'ular,anafora,lirik qahramon,musiqiy metafora,antiteza,ogohlantiruvchi ruh,sabr motivi,ruhiy uyg'unlik,poetik til,ma'naviy mas'uliyat.

Keywords: love, philosophy, divine essence, heart strings, purity of heart, false feelings, anaphora, lyrical hero, musical metaphor, antithesis, warning spirit, patience

motif, spiritual harmony, poetic language, spiritual responsibility.

Ключевые слова: любовь, философия, божественная сущность, струны сердца, чистота сердца, ложные чувства, анафора, лирический герой, музыкальная метафора, антитеза, предостерегающий дух, мотив терпения, духовная гармония, поэтический язык, духовная ответственность.

Muhabbat mana necha asrlardan beri butun dunyo adabiyotining asosiy mavzusi bo'lib kelmoqda. Shoirilar, yozuvchilar, ssenariynavislar hatto san'atning boshqa sohalaridagi ijodkorlar ham uning ta'rifi bilan asarlar yaratishdan aslo tolmadilar. Muhabbat nafaqat insonga berilgan eng go'zal tuyg'u, ba'zida davr muammolarini ko'rsatib berish uchun foydalanilgan badiiy qurol sifatida ham xizmat qildi. Aleksandr Faynberg esa "Unutma. Bir marta chalinar navo" she'rida muhabbatni inson hayotiga bir marta keladigan bahor kabi tasvirlaydi. U shu qadar pok tuyg'uki, faqat sabr-qanoat bilan erishiladi, unga erishilganda esa qalb torlari bexos go'zal navolar chaladi.

Unutma. Bir marta chalinar navo,
Bitsa ham xotirdan o'chmas jarohat.
Unutma. Yurakni tilkalar jafu,
Faqatgina bir bor kelar muhabbat.

She'r "Unutma" murojaati bilan boshlanadi. Bu takroriy undov, ya'ni antafora butun she'r bo'ylab takror-takror qo'llanib, asar bo'ylab ogohlantiruvchi ohangni belgilaydi. Lirik qahramon kitobxonni ogohlikka chorlaydi. "Faqat bir marta chalinadigan" navo inson hayotida faqat bir marta his qilishi mumkin bo'lgan haqiqiy sevgi. Sevgi "bitsa ham" undan inson qalbida qolib alam, sog'inch hissini beradigan xotiralar bu "o'chmas jarohat" dir. Demak, insonlar muhabbatlaridan ayrilishlari, undan yiroqlashishlari mumkin, lekin uning izi aslo ko'ngildan ketmaydi. Bu iz qalbda qoladi "o'z jafosi" bilan yurakni tilkalayveradi. Band oxirida qahramon yana bir marta sevgingning qadriga vaqtiga yet, u ketsa alam qalbingga og'riq beraveradi, axir "faqatgina bir marta kelar muhabbat" deganday. Shoir bu bilan inson hayotidagi bir martalik ilohiy ne'mat, uni soxta hislar yoki aldanchi ko'zlar tufayli boy berish fojea degan g'oyani ilgari surmoqda. Bu ilohiy ne'mat o'yinchoq emas, qalb torlarida chalinadigan muqaddas va yagona navo sifatida talqin qilinadi.

Yolg'on va'dalardan ne foyda bor-a?!
Bu o'yindan chiqib ketganman azal.
Qalbaki nag'mani tinglashdan ko'ra,
Odamga jimjitlik, sukunat afzal.

Lirik qahramon tilidan birinchi misradanoq muhabbatdek muqaddas ne'mat allaqachon o'yinchoq bo'lib qolgani aytiladi. Yolg'on va'dalar-u so'zlar uni ma'naviy qadrsiz hodisaga aylantirib qo'ygan. Va'da aslida ishonch ramzi, ammo "yolg'on" sifati

qo'shilgach, u qalbni yemiruvchi ofatga aylanadi."Bu o'yindan chiqib ketganman azal" misrasida muhabbat "o'yin" metaforasi bilan ifodalanadi."O'yindan chiqib ketish" jumlasida esa endi qahramon muhabbatga bo'lgan umidini, ishonchini yo'qotganidan dalolat beradi."Azal" so'zi uning qarori qat'iy va uzoq vaqtlar oldin qabul qilinganidan darak beradi. Balki qahramon ham bir vaqtlar sevgan, sevgilisi uchun hamma narsaga tayyor bo'lgani-u, uning bu pok tuyg'ulari yolg'on va'dalar bilan vayron qilingandir."Qalbaki nag'mani tinglashdan ko'ra" satrida ham musiqiy metafora davom etib, endi qalbdagi muhabbat hissi "nag'ma" ga qiyoslanadi. Biroq bu "nag'ma" soxta ekanligi, aldanchi ekanligi nafaqat so'zning o'zi bilan, balki "qalbaki" degan ta'rifni ishlatilishi bilan ochiqlanadi. Soxta muhabbat ohangsiz kuyga o'xshaydi. U jaranglaydi, biroq qalbg'a yetib bora olmaydi."Odamga jimjitlik, sukunat Afzal" misrasi bandning falsafiy markazi hisoblanadi. Lirik qahramon yolg'izlik soxta muhabbatdan yaxshiroq, sukunat aldanchi shovqindan pokroq, qalbdagi og'ir jarohat qoldirib ketadigan yolg'ondan ko'ra sukunat himoyalibroq deya o'qtiryapti. Bundan sukut qilish zaiflik qilish emas, ma'naviy himoyalinish ekanligini tushunamiz. Shoirning ham, lirik qahramonning ham pozitsiyasi aniq: muhabbat haqiqatan muqaddas tuyg'u, lekin u qalbakilashtirilsa, inson ruhiyatini, ichki olamini yemiradi. Jimlikni, qalbni asrash yo'lini tanlash qahramon nazdida ma'naviy yetuklik belgisidir.

O'tinaman, dangal bo'lmagan so'zga,
Ishonib boy berib qo'yma boringni.
Uchmagin aldoqchi, bevafo ko'zga,
Asrab-avaylagin yurak toringni.

Bu qism lirik qahramonning bevosita murojaati, samimiy iltijosi, hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda bergan nasihati ko'rinishida namoyon bo'ladi."O'tinaman, dangal bo'lmagan so'zga" satrida "o'tinaman" so'zi orqali qahramon so'zlari buyruq emas, samimiy iltimos ekaniga ishora qiladi."Dangal bo'lmagan so'z" – noaniq, qanday maqsadda aytilganligi aniq bo'lmagan gapni ifodalaydi. Shoir ogohlantirib aytadiki, noaniq va rost bo'lmagan so'zlar ishonchdek munosabatga umuman loyiq emas. Bundan kelib chiqadiki, muhabbat shaffoflik va rostgo'ylikka asoslangan tuyg'u."Ishonib boy berib qo'yma boringni" satridagi "boringni" so'zi moddiy boyliklarga emas, inson ichida yashayotgan, pulga sotib olib bo'lmaydigan boyliklar-qalb pokligi, ishonch, orzu, ichki osoyishtalik kabi boshqa ma'naviy ne'matlarga ishora qilyapti. Birgina xato, o'rinsiz berilgan ishonch mana shuncha boshqa boyliklarning ham boy berilishiga olib keladi."Uchmagin aldoqchi, bevafo ko'zga" misrasida "uchma" metaforik qurilmasi mavjud bo'lib, u hissiyotga berilib o'ylamasdan ergashib ketish ma'nosini ifodalaydi."Aldoqchi, bevafo ko'z"- tashqi go'zallik, ammo samimiyatsizlik timsoli. Shoir o'quvchini tashqi jozibaga mahliyo bo'lib aldanib qolmaslikka chaqiradi."Asrab avaylagin yurak toringni" ni satridagi "yurak tori" insonning eng nozik va sezgir ruhiy qatlamidir. Tor uzilsa-kuy

buziladi. Demak qalb jarohat olib, muhabbat uyg'unligi buzilmasligi uchun, o'sha "tor"ni "asrab avaylash", ya'ni ehtiyot qilish kerak.

Sabr qil, tebrangay yurakdagi tor,

Ilohiy go'zallik navosi bo'lib.

Bir yurak jo'r bo'lar unga beg'ubor,

Haqiqiy muhabbat sadosi bo'lib.

Ushbu parcha she'rning so'nggi bandi bo'lib, shoir unda asar davomida berilgan dramatismni yengillashtiradi va uni umid bilan yakuniga yetkazadi. "Sabr qil, tebrangay yurakdagi tor" misrasi orqali "qalbingdagi tor"-sevgi baribir qachondir "tebranadi"-his qilina boshlaydi, faqat sen uni sabot bilan kut, deb aytmogda. "Ilohiy go'zallik bo'lib" misrasida esa muhabbat oddiy insoniy tuyg'udan ko'ra yuqori ilohiy tuyg'u darajasiga ko'tariladi. Ilohiy muhabbatgina chin bo'lishini hisobga olsak, sabr bilan kutilgan muhabbat pok, ma'naviy boy, ruhiy mukammallik yetaklaydigan darajadagi bo'lib kelar ekan. Muhabbat shunchaki his emas, go'zallikning eng yuksak shakli. "Bir yurak jo'r bo'lar unga beg'ubor" satrida "jo'r bo'lish" so'zi orqali ikki inson qalban va ruhan uyg'unlashib ketishi haqida aytilmogda. Beg'uborlik- muhabbatning asosiy sharti. Bu muhabbat faqat pok qalblar orasida paydo bo'ladigan hissiyot ekanini ko'rsatadi. "Haqiqiy muhabbat sadosi bo'lib" misrasi she'rning so'nggi satri bo'lib, qahramon butun she'r davomida soxta muhabbatni rad etib, ushbu misrada "haqiqiy" muhabbatni e'tirof etadi. "Sado" davomiylik ramzi bo'lib, chin muhabbat bir lahzalik emas umr boqiy davom etishini anglatadi. Haqiqiy muhabbat, darhaqiqat, insondan sabrni, kutishni talab etadi. Bu amallar bajarilganda esa inson haqiqiy, pok sevgisiga erishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'rida muhabbat eng ajoyib, takrorlanmas uslubda yoziladi. Shoir uchun muhabbat romantik hislar majmui emas, o'zida ma'naviy mas'uliyatni, qalb var ruh pokligini, beg'uborlikni mujassamlashtirgan tuyg'udir. Asarda bu tuyg'u falsafiy-lirik usulda yoritilib, u orqali kitobxonlar muhabbat niqobi ostida uchrashi mumkin bo'lgan soxta hislar va natijada qo'ldan boy berilishi mumkin bo'lgan ne'matlar haqida ogohlantiriladilar. Bunday qalbaki "nag'ma" lardan ko'ra jimjitlik, sukunatni tanlab, ma'naviy yetuklikka yetishgan afzal ekanligi aytiladi. She'rning umumiy mazmuni muhabbat ongli tanlov ekanligi, qalb pokligini saqlash va ilohiy go'zallikka intilish kerak ekanligi haqidagi g'oya ilgari surilishi va uning to'liq ochib berilishidan iborat. Asar o'quvchini hissiyotlarga berilib ketishdan tiyilishga, o'z qalbinu asrashga, soxtalikning tuzoqlaridan nari yurib, pok sevgisini sabr bilan, matonat bilan kutishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI ALEKSANDR FAYNBERG QORALAMALAR QASIDASI she'rlar. TOSHKENT "ADABIYOT" 2021
2. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
5. <https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/>
6. Usmonova D. Zamonaviy she'riyatda sevgi falsafasi va poetik obrazlar tizimi. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021